

## QO`QON XONLIGINI USMONIYLAR IMPERYASI BILAN DIPLOMATIK ALOQASI

*Abduraufov Qodiroxun*

*Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Qo`qon xonligini tashkil topishi va uning tarixini yoritishda tarixiy manbalarni ahamiyati ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalari hamda Usmoniylar bilan olib borgan diplomatik aloqalari, Qo`qon xonligini adabiyoti, madaniyati haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *Qo`qon xonligi, Rossiya imperiyasi, savdo-sotiq, Usmoniylar imperiyasi, diplomatik, adabiyot, sa`nat.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о создании Коканства и значении исторических источников в объяснении его истории, внутренних и внешних торговых связей и дипломатических отношениях с османами, литературе и культуре Коканата.*

**Ключевые слова:** *Коканское ханство, Российская империя, торговля, Османская империя, дипломатия, литература, искусство.*

**Annotation:** *This article talks about the establishment of the Kokhanate and the importance of historical sources in explaining its history, internal and external trade relations and diplomatic relations with the Ottomans, the literature and culture of the Kokhanate.*

**Key words:** *Kokhan Khanate, Russian Empire, trade, Ottoman Empire, diplomatic, literature, art.*

Ushbu maqolani davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning tarix haqidagi “Milliy tarixno milliy ruh bilan yaratish kerak.Aks holda uning tarbiyaviy ta`siri bo`lmaydi”<sup>1</sup>- deb ta`kidlagan ushbu so`zlari bilan boshlash joiz deb hisoblayman.Hammamizga ma`lumki, ko`hna tariximizda Turkiston o`lkasida uchta xonlik tashkil topgan. Ular: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo`qon xonligi hisoblanadi.Buxoro amirligini mang`itlar sulolasi boshqargan, Xiva xonligini qo`g`irotlar sulolasi boshqargan, Qo`qon xonligini minglar sulolasi boshqargan. Qo`qon xonligi geografik joylashishi qulay bo`lgan xonlik bo`lib, karvon yo`llarida joylashganligi sababli savdo-sotiq sohasida taraqqiy etgan. Qo`qon shahri XVIII-XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri bo`lgan. Qo`qon xonligiga o`zbek minglar urug`idan bo`lgan Shohruxbiy 1709-yilda asos solgan. Xonlikning davlat boshqaruvi mutlaq monarxiya.Dini islom bo`lgan. Xonlikning hududiga 19 asrning 1-yarmida

<sup>1</sup> <https://m.aniq.uz>

Sirdaryoning soʻl sohili bilan Qorategin oraligʻidagi Qoʻqon viloyati, Namangan viloyati, Xoʻjand shahri, Toshkent va Xoʻjand oraligʻidagi Oʻratepa viloyati kirgan. Qoʻqon xonligini aholisi 3 mlnga yaqin boʻlgan. Aholisini qisman oʻzbeklar tashkil etadi. Xonlikning asosiy mashgʻuloti hunarmandchilik va kosibchilik boʻlgan. 18-19 asrlarda madaniy hayot ijobiy oʻzgarishlar yuz berdi. Umuman olgan Turkiston xonliklari 3 xonliklar iborat boʻlgan va biz Qoʻqon xonligi tarixiga hamda uning Usmoniylar imperyasi bilan olib brogan diplomatik aloqalriga toʻxtalib oʻtamiz. Tarixdan maʼlumki Qoʻqon xonligi 1709-1710-yilda minglar urugʻidan boʻlgan Shohruxbiy asos solgan. Xonlikning tarkib topishining dastlabki yillarida diplomatik aloqalar mavjud boʻlmagan. 1760-yillarda Xitoy yaʼni Chin imperyasi bilan faol munosabatlarga kirisha boshlagan. Buning ham oʻziga yarasha sababi boʻlgan. Sharqiy Turkistondagi siyosiy vaziyat, siyosiy masalalarning orqasi<sup>2</sup>dan bu aloqalar kelib chiqqan. Bu yilda Qoʻqon xonligida hukmron boʻlgan shaxs Erdonagʻon boʻladi. Erdonagʻon tomonidan oʻzida Xitoy bilan munosabatlari davomida Afgʻoniston durroniylari bilan, Ahmadshoh durroniy bilan hamda Qozoq xonliklari bilan aloqalarni yoʻlga qoʻya boshlagan. Bundan keyin siyosiy munosabatlar sekin-sekin faollashib siyosiy masalalarni yechish maqsadida, Qoʻqon xonligi Sharqiy Turkistondagi savdoni qoʻliga olish maqsadida, Chin imperyasi bilan elchilik, diplomatik munosabatlarni faollashtirishga harakat qilgan. Xonlikning yuz yil davomida hududi kengayib bordi, 1800-yillargacha hududi asosan Fargʻona vodiysidan iborat edi. 1798-yilda Olimxon otasi Norboʻtaxon oʻrniga taxtga oʻtirgandan keyin, Toshkent hokimi Yunusxoʻja bilan ziddiyatlari boshlandi. Toshkent hududini xonlikning tarkibiga qoʻshib olish harakatlarini asosan Olimxon olib bordi. Dashti Qipchoq hududigacha kengaytirishga Umarxon jazm qildi va buni nihoyasiga yetkazdi. Shundan soʻng xonlikning hududi kengayib, shimoliy chegarasi Rossiya imperyasi bilan chegaradosh boʻlib qoldi. Qoʻqon xonligi tashqi siyosatida ham oʻz yoʻnalishini oʻzgartirdi. Oldin faqat Buxoro xonligi hamda, Sharqiy Turkiston masalasida Chin imperyasi bilan diplomatik aloqalar olib borgan boʻlsa, endi shimoli chegarasi Rossiya imperyasiga choʻzilgani munosabati bilan 1812-yilda Umarxon oʻz elchilarini Rossiya imperyasiga yuboradi. Bundan koʻzlangan maqsad siyosiy, iqtisodiy rivojlanish Rossiya imperyasi bilan savdo-sotiq olib borish hamda Qoʻqon savdogarlariga imtiyozlar olish edi. Lekin Usmoniylar bilan diplomatik aloqalari sal kechroq boshlandi. Qoʻqon xonligi dastlabki elchisini 1820-yilda yubordi. Shu yillardan buyon Usmoniylar bilan aloqalari rivojlanib bordi. Qoʻqon xonligi bilan Usmoniylar imperyasi bilan aloqalari qoʻlyozma kitoblarda hamda Istanbuldagi Usmoniylar arxivida saqlanadi. Umarxon shu dastlabki Usmoniylar imperyasiga joʻnatgan elchisi Hamadonlik saidlardan Saidxoʻja Mirqurbonni yuboradi. Mashhur turk yozuvchisi

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Tarixi 8-sinf. Toshkeny. 2019.



Mehmet Saroyini “Umarxonni yuborgan elchisini go`yoki Amir Haydarni orqasidan Qo`qon xoni ham o`zini elchisini yubordi” degan fikrlarni ilgari suradi. Bu ilgari surilgan fikrning isboti Umarxonni va Amir Haydarning ham elchisi Istanbulga birin-ketin borishadi. Buxoro xoni Amir Haydar 1800-yilda Buxoro taxtiga o`tirgan bo`lsa, 1812-1817-yillarda Usmoniylar imperyasiga elchi yuboradi. Agar Amir Haydar ilk marotaba 1820-yilda elchi yuborganda, Umarxonni orqasidan elchi yubordi deyish to`g`riroq bo`lar edi. Qo`qon xonliklari tasavvurida Usmoniylar imperyasi haqida o`zgacha tasavvurlar bo`lgan, chunki Turkiston xonliklarining aholisini Haj safariga borishda uchta yo`l bo`ladigan bo`lsa shulardan bittasi Usmoniylar imperyasiga ya`ni Istanbul Anodola orqali Hijozga borishgan. 1790-yilga oid ikta hujjat bor. Bunda hali Qo`qon xonligi bilan Usmoniylar imperyasi diplomatik aloqalar o`rnatmagan vaqtda, Qo`qondan Do`stmuhammad boshchiligidagi 5 kishi 1789-1790-yillarda turk va rus urishlari bo`lgan, bu vaqtdagi urishda turklar qatorida shu 5 kishi qatnashgan. Bu 5 ta shaxs qatnashganligi haqida hujjatlar bor. Eng qizig`i, bular Usmoniylar davlati nozirlaridan “Biz shu urishda qatnashsak bizga 5 ta qilich, miltiq va bizi harajatlarimiz uchun mablag` berinlar” degan mazmundagi hujjatdir. Usmoniylar davlati bu beshta shaxsni o`rganishadi va bular rostan ham urushda qatnashganligi haqida qaror ham imzolashadi. Yana bitta hujjatida bu beshtasiga bittadan ot, beshta qilich, uchta miltiq berishadi va harajatlari uchun ming qurush mablag` berishadi. Ko`ngilli bo`lib urushda qatnashganligi haqida ham qarorda yozib o`tishadi. Bu 5 kishi o`zining harbiy taktikasiga ega bo`lgan. Shuning uchun ham Usmoniylar imperyasi bu 5 ta shaxsga ishonib urush qurollarini topshirgan. Garchi elchilik aloqalari 1820-yilda o`rnatilgan bo`lsada, undan oldin ular o`rtasida bordi-keldi hamda xalqlar o`rtasidagi ma`naviy bog`liqlik haqida ham qayd etishimiz darkor. Turkiston xalqining Haj amallarini bajarishi uchun Usmoniylar imperyasi hududidan o`tib ketishi va siyosiy masalalarida, urushda Qo`qon xonligidan besh nafar shaxsning qatnashganligi, ikki mamlakat o`rtasida oldindan rishta bog`langanligini dalil qilishimiz lozim. Bu esa xalqlar o`rtasidagi o`zaro do`stlik aloqalarini belgilab beruvchi fakt. Aytib o`tganimizdek amir Umarxon dastlab Usmoniylar imperyasiga 1820-yilda elchi yubordi, buning asosiy sababi Qo`qonga uch tarafdin bo`layotgan tazyiqlar edi. Bu haqida Umarxon yuborgan elchi Saidxo`ja Mirqurbon Umarxon tilidan Usmoniylar davlatining tashqi xorijiy nazoratiga og`zaki bayonoti bor. Bu bayonotida shunday deyilgan: “Biz uchta tomonimizda ya`ni Qo`qon xonligiga dushman kayfiyatida bo`lgan mamlakatlar bor” deydi. Usmoniylar bilan diplomatik aloqaga kirishishini maqsadi shu yerda o`zi aslida. Shimol tarafdin Rossiya imperyasi Raim qal`asini qurishi. Qo`qon xonligi bundan o`ylaydiki, Rossiyaning harbiy istehkomlar qurishi, yaqin orada bizga tahdid solishi mumkin degan fikrga boradi. Ikkinchi asosiy masala Sharqiy Turkiston masalasi bo`lgan. Erdonag`ondan keyin Norbo`taxon ham, Olimxon ham, Umarxon ham Sharqiy Turkiston Qashqar masalasi bo`lgan. Buning uchun bizga Usmoniylardan

jangdagi harbiy taktikalardan qanday foydalanishni hamda harbiy qurollardan qanday foydalanish kerakligi haqida o`quv qo`llanmalar haqidagi taklifni aytib o`tadi. Amir Umarxonni bu taklifiga shu paytdagi Usmoniylar imperyasi hukmdori Sulton II Mahmud tomonidan maktub yozadi. Bu haqidagi ma`lumot Usmoniylar arxivlarida saqlanadi. Bu haqidagi ma`lumotga ko`plab olimlar qiziqadi. Yaponyalik olim Xi Sa U haqida maqolasi bor. Ayrim olimlar javob maktubi yuborilmagan deydi. Lek javob maktubi borligi Usmoniylar hujjatlarida borligi bu aniq faktligi isbotlangan. Hozir ham bu arxivda bor. O`zbekistonda ham buning nusxasi mavjud. Muhammad Hakimto`rani “Muntahobut Tavoreh” asarida shunday yozadiki: “O`sha sutoni Rum elchisi, ya`ni Saidxo`ja Mirqurbonni nazarda tutadi. Umarxonni saroyida qaytgan elchini kutvolish marosimi bo`ladi. U yerda ikta to`pponcha, ikta durbin hamda “Xonlar xoni” unvonini olib keladi. Bu unvonni mazmuni, shimoliy elatlarni Umarxonga bo`ysunishi ma`nosini beradi”. Umarxon ham bir qancha hadyalar ham bor. Juda chiroyli Umarxonni uchta muhri bor “Mushhaf Sharf” yuborgan. Bu elchilar orasidagi go`zal an`ana hisoblanadi. Bir musulmon hukmdorni ikkinchi hukmdorga o`zini do`stligini ifodalovchi ramz ham bo`ladi. Bundan tashqari adabiyotshunos olimlarimizning juda buni yaxshi tahlil qilib berishgan. Amir Umarxon “Muhabbatnoma” majmua tuzdirgan. Bilamizki Umarxon Qo`qon adabiy nuhitini asosi hisoblanadi. U “Amiriy” taxallusida g`azallar yozgan. Bu majmuada turkiy shoirlarining turkiy devonlaridan tartibga keltirib yartagan. Bu majmua bir nusxada yaratilgan. Bunda Alisher Navoiyni, Fuzuliyini, Lutfiyni ham o`zini Amiriyni devonlarini to`plab, Usmoniylar imperyasini hukmdori Sulton II Mahmudga sovg`a qiladi. Umarxon bu orqali o`zbek sulolasi turkiy sulolasi ekanligini va turkiylikni hurmat qilish ma`nosini beradi<sup>3</sup>. Qo`qon xonligining birinchi tarixnavisi Fazliy Farg`oniy bo`lib, u “Umarnoma” nomli asar yozadi. Ushbu tarixchi “malik-ul shuaro” unvoniga ega bo`lgan bo`lib, “Umarnoma” asarini Amir Umarxonning ko`rsatmasiga asosan yozganini aytish mumkin. Ushbu Qo`qon xonligi haqidagi manba tojik tilida she`riy yo`l bilan yozilgan bo`lib, hozirda Rossiyaning Sankt-Peterburg bo`limida saqlanmoqda.

Ushbu maqoladan xulosa shundan iboratki, tarix kelajak ko`zgusi hisoblanadi. Tarix haqida gap ketganda, O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo`q asaridagi quyidagi “O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo`lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi zarur”<sup>4</sup> – degan fikrlarni keltirish mumkin.

<sup>3</sup> Bobobekov, H. Qo`qon tarixi. Toshkent. 1996.

<sup>4</sup> I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz- kelajak yoq. Toshkent. 1998.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1 <https://m.aniq.uz>

2 O`zbekiston tarixi 8-sinf. Toshkent. 2019.

3 Bobobekov.H Qo`qon tarixi. Toshkent.1996.

4 I.A.Karimov.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.Toshkent.1998

